SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 4
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

Boltiq bo‘yi davlatlarining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tizimidagi soliq imtiyozlari: qiyosiy tahlil va baholash

Umarjonov Sarvarjon Soyibjon o‘g‘li

Moliya-bank akademiyasi magistranti
Email: fenomen1993@bk.ru

Annotatsiya
Ushbu maqolada Boltiq bo‘yi davlatlari (Latviya, Litva va Estoniya) misolida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JShDS) imtiyozlarining iqtisodiy-nazariy asoslari, ularning ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va investitsiyalarni rag‘batlantirishdagi roli qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash usullari (mikrosimulyatsiya modellari, xarajatlar va foyda tahlili) o‘rganilib, O‘zbekiston soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, soliq imtiyozlari, soliqqa tortilmaydigan minimum, progressiv soliq, ijtimoiy tengsizlik, Boltiq bo‘yi davlatlari, soliq ma’muriyatchiligi.

Аннотация
В статье на примере стран Балтии (Латвия, Литва и Эстония) проводится сравнительный анализ экономико-теоретических основ льгот по подоходному налогу с физических лиц (НДФЛ), их роли в снижении социального неравенства и стимулировании инвестиций. Также в статье изучены методы оценки эффективности налоговых льгот (микросимуляционные модели, анализ затрат и выгод) и разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию налоговой системы Узбекистана.

Ключевые слова
подоходный налог с физических лиц, налоговые льготы, необлагаемый минимум, прогрессивный налог, социальное неравенство, страны Балтии, налоговое администрирование.

Abstract
This article provides a comparative analysis of the economic and theoretical foundations of personal income tax (PIT) relief in the Baltic states (Latvia, Lithuania, and Estonia), focusing on their role in reducing social inequality and stimulating

investment. Furthermore, the paper examines methods for assessing the effectiveness of tax reliefs (such as microsimulation models and cost-benefit analysis) and puts forward scientific and practical recommendations for improving the tax system of Uzbekistan.
Keywords
personal income tax, tax reliefs, tax-free minimum, progressive tax, social inequality, Baltic states, tax administration.

Kirish

Jahonda soliq boshqaruvini raqamlashtirish natijasida soliq tushumlari barqaror o‘sib bormoqda. Yevropa davlatlarida 2023-yilda soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati o‘rtacha 41,7%ni tashkil qilgan (EU, 2024). Estoniyada barcha soliq deklaratsiyalarining 99% elektron tarzda topshiriladi va soliq ma’muriyatchiligi xarajatlari YaIMning atigi 0,5% ini tashkil etadi. Norvegiyada sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimi soliq qochirish holatlarini 28% ga kamaytirgan. Bu ko‘rsatkichlar innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi soliq tizimi samaradorligini oshirishda bevosita hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston 2030” strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror o‘sishni ta’minlashga qaratilgan. Strategiyada iqtisodiyotni raqamlashtirish va soliq tizimini takomillashtirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda qabul qilingan Soliq kodeksidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirish, shaffoflikni oshirish hamda soliq to‘lovchilar uchun qulayliklar yaratishga yo‘naltirilgan. Jumladan, elektron hisob-kitoblar va hisobotlar joriy etilishi, soliqlarni to‘lash muddatlarining moslashtirilishi hamda soliq tekshiruvlarining samaradorligini oshirishga doir normativ-huquqiy asoslar mustahkamlandi (Internet manbaa, 2023). O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi hali ham yuqori bo‘lib, bu holat soliq tizimi samaradorligiga to‘sqinlik qilmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot ulushi 31,5%ga teng bo‘lgan. Xorazm viloyatida esa 2023-yilgi soliq auditlari davomida 178 mlrd so‘mlik yashirin daromad aniqlangan. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining 40%dan ortig‘i soliq organlari bilan real vaqt rejimida raqamli integratsiyalashmagan. Bu esa soliq tushumlarining to‘liq yig‘ilmasligi va byudjet intizomi zaifligiga sabab bo‘lmoqda. 2022-yil 8-fevral kuni

O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasida Latviya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Edgars Rinkevichs boshchiligida mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan delegatsiya vakillari ishtirokida O‘zbekiston — Latviya ishbilarmonlar kengashining ikkinchi yig‘ilishi o‘tganligi ham Boltiqbo‘yi davlatlari bilan istiqolli hamkorlik, mazkur mamlakatlarni ilg‘or tajribalarini mintaqa iqtisodiyotiga tatbiq etish masalalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi (Internet manbaa, 2022).

Umuman olganda, “Soliq tizimida Boltiqbo‘yi davlatlari tajribasi va O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari” mavzusi hozirgi davrda nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori dolzarblikka ega bo‘lib, hududiy fiskal barqarorlik, iqtisodiy faollik va byudjet mustahkamligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2019-yilning 6-sentyabrdagi PF-5813-son “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son “Yashirin iqtisodiyotning qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma’muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”, 2011-yil 4-apreldagi PF-4296-son “Tadbirkorlik subyektlarini tekshiruvlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 9-noyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son “Tadbirkorlik subyektlari uchun ma’muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq

ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son “Qashshoqlikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2012-yil 10-maydagi PQ-1754-son “2012–2016-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”, 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-sonli qarorlari hamda mazkur soha tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Soliq tizimida xorij tajribasi, rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularning ilmiy-nazariy masalalariga doir taqdidotlarni shartli ravishda 2 guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga xorijiy mualliflarning ilmiy tadqiqotlari, xususan, Vahram Stepanyan (Stepanyan, 2003) o‘z maqolasida Boltiqbo‘yi, Rossiya va sobiq Sovet Ittifoqining boshqa (BRO) mamlakatlarining soliq tizimidagi islohotlari tajribasini tahlil qilib o‘tgan va umuman olganda, eng yuqori marjinal soliq stavkalarining pasayishi natijasida daromad solig‘i tushumlarining sezilarli darajada yaxshilanganiga oid dalillar kam ko‘rinligini va BRO (the Baltics, Russia, and other countries) mamlakatlarida iqtisodiy agentlarning ishchi kuchi ta’minoti, jamg‘arma va investitsiyalar nuqtai nazaridan daromad solig‘i stavkalariga nisbatan xatti-harakatlarining elastikligi katta emasligi va mavjud daromad solig‘i stavkalarining pasayishi iqtisodiy faoliyatning sezilarli darajada kengayishiga olib kelishi ehtimoldan yiroqligi ta’kidlab o‘tgan.

Ilze Sproge rahbarligidagi mualliflar jamoasi tadqiqotida esa Boltiqbo‘yi mamlakatlaridagi shaxsiy daromad solig‘i (personal income tax, PIT) ga yengillik tizimlari taqqoslanadi va baholanadi, ularning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va 2000 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini o‘rganadi. Tahlilda nazariy asoslar, amaliy tadqiqotlar, mikrosimulyatsiya modellari, xarajat-foyda va statistik baholashlar qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, progressiv tizimlar tengsizlikni

samarali ravishda kamaytirsa-da, ular ma’muriy murakkablikni keltirib chiqaradi. Aksincha, Estoniyaning tekis stavka tizimi investitsiyalar va iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, ammo qayta taqsimlash maqsadlariga erishishda yetarli emas. Ushbu qiyosiy tahlil PIT tizimlariga xos bo‘lgan murosalarni ta’kidlaydi va muvozanatli iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy tenglik uchun soliq siyosatini optimallashtirish bo‘yicha tushunchalar berib o‘tgan (Ilze Sproge, Natalja Lace, Aina Joppe, 2025).

Piter Feyt tadqiqotida esa Boltiqbo‘yi davlatlari — Estoniya, Latviya va Litvaning soliq tizimlari hamda ularning xorijiy investorlar uchun jozibadorligi tahlil qilingan. Ushbu mamlakatlar past soliq yuklamasi, tekis (flat) soliq stavkalari va investorlar uchun qulay iqtisodiy muhit bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Estoniyada reinvestitsiya qilingan foydaga 0% korporativ daromad solig‘i qo‘llanilishi uning asosiy ustunligi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Latviya va Litvada esa kichik biznes uchun mos ravishda 9% va 5% imtiyozli soliq stavkalari mavjudligi ta’kidlanadi. Maqolada 2000-yillarning boshlarida Boltiqbo‘yi iqtisodiyotlarining tez sur’atlar bilan o‘sishi, 2008–2009 yillardagi global moliyaviy inqirozning salbiy ta’siri va 2010–2012 yillarda kuzatilgan iqtisodiy tiklanish jarayonlari yoritilgan. Estoniya eng barqaror davlat sifatida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, uning davlat qarzi Yevropa Ittifoqidagi eng past ko‘rsatkichlardan biri ekani ta’kidlangan. Shuningdek, har uch mamlakatda korporativ daromad solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) va boshqa soliqlarning stavkalari batafsil bayon etilgan. Latviya va Litvada maxsus iqtisodiy zonalar orqali soliq imtiyozlari berilishi, Estoniyada esa soliq tizimining soddaligi va shaffofligi alohida qayd etilgan (Peter Feith, Maie Majak-Knöbl, 2012).

Kristian Jarve boshchiligidagi soliq tizimi mutaxasisslari Boltiqbo‘yi mamlakatlarining soliq tizimi qiyosiy tahlilini keltirib o‘tgan. 2024-yildagi mualliflarning o‘z xisobotlarida Latviya, Litva va Estoniyaning har biriga alohida to‘xtalib soliq tizimini atroflicha tahlil qilib o‘tgan (Kristjan Jarve, Matrins Lubgans, Vygintas Valiulis, 2024).

Dena Grinber Boltiqbo‘yi davlatlarining iqtisodiy o‘sishi va yagona soliq (Flat tax) ni joriy etish o‘rtasida vaqtga bog‘liqlik aniq bo‘lsa-da, tekis soliq stavkasining ta’siri bo‘yicha hozirgi iqtisodiy tahlil asosan Rossiya bilan cheklanganligini ta’kidlab o‘tadi. “Boltiqbo‘yi yo‘lbarslari”ning muvaffaqiyati ularning tekis soliq siyosati bilan bog‘liq

bo‘lishi mumkinligini va agar shunday bo‘lsa, qay darajada bog‘liqligini aniqlashdan oldin qo‘shimcha tadqiqotlar va tahlillar o‘tkazilishi kerak. Boltiqbo‘yi davlatlari bir qator sabablarga ko‘ra mos laboratoriya hisoblanadi: ular o‘rganish uchun eng uzoq tarixga ega va ular orasida iqtisodiyot, geografik joylashuv va Yevropa bilan aloqalar kabi ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Bu o‘xshashliklar tahlilga alohida mamlakatlardagi noyob omillarni nazorat qilish va qat’iy soliqning ta’sirini ajratish imkonini beradi. Daromad, YaIM va ishchi kuchi ta’minoti ma’lumotlariga ko‘ra, o‘z tadqiqotida qat’iy soliqning ushbu uchta Boltiqbo‘yi davlatlariga ta’sirini tahlil qilishga harakat qiladi. Ushbu mamlakatlar bo‘yicha tahlildan foydalanib, ushbu maqola qat’iy soliq stavkasi o‘tish davri iqtisodiyoti uchun samarali va kuchli o‘sish strategiyasi ekanligini muhokama qilishga harakat qiladi. Ushbu tahlillar natijalari qat’iy soliqning o‘sish, tenglik yoki ishchi kuchi ta’minotiga aniq ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmaydi. Biroq, qat’iy soliqning soddaligisiz bunday o‘sish Boltiqbo‘yi davlatlari mustaqilligining dastlabki yillarida sodir bo‘lmasligi mumkini ta’kidlaydi (Greenberg, 2009).

G.Mazure, D.Viksne o‘z tadqiqotlarida Boltiqbo‘yi davlatlarining uchtasi 1994 va 1995-yillarda birinchi bo‘lib yagona soliq tizim (Flat tax system) larini qabul qilishganliklarini va shu tariqa yagona soliq tuzilmalarini qo‘llagan birinchi zamonaviy davlatlarga aylanliklarini ta’kidlaydi. Yagona soliq, ya’ni yagona stavka bo‘yicha undiriladigan soliq g‘oyasi keyinchalik Yevropa va butun dunyoda tobora ko‘proq muhokama qilinayotgan va amalga oshirilayotgan fiskal strategiyaga aylandi. Biroq, ba’zi umumiy o‘xshashliklarga qaramay, soliq tizimi Boltiqbo‘yi davlatlarida farq qiladi, bu esa ushbu tadqiqotning maqsadi Boltiqbo‘yi davlatlarida daromad solig‘i tendentsiyalarini o‘rganishga olib keldi. Tadqiqot Estoniya soliq tizimi hatto dunyodagi eng liberal va eng sodda tizimlardan biri degan xulosaga olib keladi. Boltiqbo‘yi davlatlari orasida eng oqilona daromad solig‘i Litvada kuzatiladi (ham CIT, ham PIT 15%). Estoniya va Litvada PIT va CIT stavkalari bir xil, Latviya esa eng qattiq PIT stavkasini qo‘llaydi (24%). Soliq daromadlari va davlat xarajatlaridagi o‘zgarishlar iqtisodiy vaziyat o‘zgarishi bilan avtomatik ravishda sodir bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, fiskal siyosat vositalarini qo‘llash soliq tizimining rivojlanishiga va shunga mos ravishda daromad solig‘ining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi yoki uni rag‘batlantirishi mumkin.

Shunday qilib, Boltiqbo‘yi davlatlarining soliq tizimlaridagi asosiy farqlar soliqdan ozod qilinadigan minimal miqdorni hisoblash va qo‘llash, soliq imtiyozlari va tizimning o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini o‘z ichiga olganligini o‘z tahlillarida berib o‘tadi (G.Mazure, D.Viksne, 2014).

Shunindek, mavzuga doir adabiyotlar tahlilida internet global tarmoq ma’lumotlarida keltirilgan xisobotlarni ham keltirishimiz mumkin. Ushbu ma’lumotlarda Latviya, Litva va Estoniyadagi soliq stavkalari, soliq siyosati haqida ma’lumotlar keltirilgan (Anon., 2025), (Finance, 2025), (Lithuania, 2023).

Ikkinchi guruhga soliq tizimida xorij tajribasi, rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularning ilmiy-nazariy masalalari, shuningdek O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha bir qator mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, O. Abdurahmonov, M. Baboyev, F. Shamsutdinov, Sh. Shamsutdinova kabi mualliflarning darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va ilmiy maqolalarda dunyoning rivojlangan mamlakatlari Kanada, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Ispaniya, Belgiya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Misr kabi mamlakatlarning soliq tizimi tahlil qilingan (Abdurahmonov, 2003), (Одил, М), (Бобоев М., Мамбеталиев Н, 2005), (Шамсутдинов Ф., Шамсутдинова Ш., 2002). Mavjud adabiyotlarda Boltiqbo‘yi davlatlari, jumladan, Latviya, Litva, Estoniya soliq tizimi tajribasi yetarli darajada tadqiq qilinmaganligi tadqiqotimizni dolzarbligini yanada oshiradi.

Asosiy qism

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining iqtisodiy-nazariy jihatlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar fuqarolarning daromadlariga, milliy fiskal siyosatga hamda iqtisodiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Nazariy nuqtayi nazardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Birinchidan, ijtimoiy adolatni ta’minlash. Soliq imtiyozlari daromadlar tengsizligini, xususan, kam ta’minlangan guruhlar orasidagi tafovutni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, qaramog‘ida shaxslar bo‘lgan yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar

uchun belgilangan soliq imtiyozlari iqtisodiy jihatdan zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash vositasi hisoblanadi (R. A. Musgrave, P. B. Musgrave, 1989).

- Ikkinchidan, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish. Soliq imtiyozlari investitsiyalar, xayriya faoliyati, ta’lim yoki tadbirkorlik kabi muayyan sohalarni rivojlantirishga turtki beradi.
- Uchinchidan, davlat siyosati maqsadlariga erishish. Masalan, soliq imtiyozlarini taklif etish orqali ekologik toza tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash yoki oilalarni rag‘batlantirish.

Soliq sohasidagi mutaxassislar o‘z tadqiqotlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlarining turli ko‘rinishlarini muhokama qiladilar, jumladan:

- Standart imtiyozlar: soliq to‘lovchining shaxsiy vaziyatidan qat’i nazar, barchaga bir xil qo‘llaniladigan qat’iy belgilangan summa yoki foizli chegirma.
- Alohida ehtiyojli shaxslar uchun imtiyozlar: ko‘p bolali oilalar, farzand tarbiyalayotgan shaxslar, pensionerlar yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar kabi aniq guruhlarga beriladigan maqsadli imtiyozlar.
- **Xarajatlar bo‘yicha imtiyozlar:** ta’lim, tibbiy xarajatlar yoki uy-joy sotib olish kabi muayyan xarajatlar uchun taqdim etiladigan soliq chegirmalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining iqtisodiyotga ta’siri ham muhim hisoblanadi. Ijobiy jihatdan bu iste’molni rag‘batlantirish hamda uzoq muddatli investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali uy xo‘jaliklarining daromadlarini oshirish sifatida baholanishi mumkin. Daromad solig‘idan beriladigan imtiyozlar ko‘pincha progressiv soliq tizimining bir qismi bo‘lib, u kam daromad oluvchi guruhlarning soliq yukini kamaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi (P. Diamond, E. Saez, 2011).

Boshqa tomondan, salbiy jihatlari sifatida, bu davlat budjeti tushumlarini kamaytiradi, soliq ma’muriyatchiligi xarajatlarini oshiradi va soliq tizimini murakkablashtiradi. Haddan tashqari ko‘p soliq imtiyozlari umumiy soliq tushumlarini mamlakatning fiskal barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan darajagacha pasaytirib yuborishi mumkin (M. Feldstein, 1995). Shu sababli, soliq tushumlari va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanatni topish zarur (J. E. Stiglitz, 2000).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i rag‘batlantirishlarining samaradorligini baholash ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u turli ko‘rsatkichlarga asoslangan miqdoriy va sifatiy tahlilni o‘z ichiga oladi (M. Feldstein, 1999).

J. A. Mirrlis (Mirrlees, J. A., 1971) o‘zining “Aydarish daromad solig‘i nazariyasi bo‘yicha tadqiqot” (“An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation”) nomli ishida samarali imtiyozlar mexanizmini o‘z ichiga olgan maqbul soliq tizimi nazariyasini yoritib bergan (J. A. Mirrlees, 1971). Tadqiqotchilar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlarining ta’sirini o‘rganib chiqqanlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari davlat budjetiga fiskal ta’sir ko‘rsatishi mumkin (J. E. Stiglitz & J. K. Rosengard, 2015., A. J. Auerbach & M. Feldstein (Eds.), 2002). Kam ta’minlangan guruhlar uchun beriladigan imtiyozlar daromadlar tengsizligini kamaytirishi, biroq budjet tushumlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari sezilarli ijtimoiy ta’sirlarga ham ega bo‘lib, xususan, ularning daromadlar tengsizligini kamaytirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi (H. J. Kleven & M. Waseem, 2013). Bu ta’sirni baholashning asosiy ko‘rsatkichi soliq imtiyozlari qo‘llanilishidan oldin va keyin daromadlar taqsimotini o‘lchaydigan GINI koeffitsiyenti hisoblanadi. Masalan, qaramog‘ida shaxslar bo‘lganlar yoki ta’lim xarajatlari uchun beriladigan soliq imtiyozlari kam daromad oluvchi uy xo‘jaliklarini manzilli qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash orqali tengsizlikni bartaraf etishda muhim rol o‘ynashi mumkin (J. E. Stiglitz, 2015).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i rag‘batlantirishlari biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va daromadlar o‘sishiga ta’sir qilish orqali tadbirkorlikni rag‘batlantirishi mumkin, masalan, yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tadi va soliq tushumlari oshadi (M. Feldstein, 1999).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari ma’muriy xarajatlarni keltirib chiqaradi, bunda ma’muriyatchilik murakkablashadi va xarajatlar oshadi (J.

Slemrod & J. Bakija, 2017). Ma’muriyatchilik xarajatlari tushumlarning foiz ko‘rinishida belgilanishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari soliq elastikligi, ya’ni daromadning qancha qismi imtiyozni olishga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq (E. Saez, 2001).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i samaradorligini tahlil qilish usullari va vositalari

Soliqqa tortish samaradorligini hamda uning jamiyat va davlat budjetlariga ta’sirini o‘lchash uchun turli xil tadqiqot usullari qo‘llaniladi:

- Mikrosimulyatsiya modellari soliq imtiyozlarining jamiyatdagi turli guruhlarga ta’sirini modellashtirish uchun qo‘llaniladi.
- Xarajatlar va foyda tahlili (Cost-benefit analysis – CBA) fiskal va ijtimoiy xarajatlarni imtiyozlar keltiradigan foyda bilan solishtirish uchun ishlatiladi.
- Statistik ko‘rsatkichlar (GINI koeffitsiyenti, Lorents egri chizig‘i, fiskal yuk).

Mikrosimulyatsiya modellari jismoniy shaxslar yoki uy xo‘jaliklari to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlardan (masalan, daromad, xarajatlar, demografiya) foydalanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad siyosatdagi o‘zgarishlar (masalan, soliq stavkalari yoki imtiyozlarning o‘zgarishi) jamiyatdagi muayyan guruhlarga qanday ta’sir qilishini modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotchilar H. Immervol va C. O’Donoghue (2001) o‘zlarining “Soliqlar va nafaqalarni mikrosimulyatsiya qilish” (“Microsimulation of Taxes and Benefits”) nomli metodologik tadqiqotida soliq va ijtimoiy siyosatni baholashda mikrosimulyatsiya modellaridan foydalanishni o‘rganib chiqqanlar (H. Immervoll & C. O’Donoghue, 2001).

A. Zasova (2017) o‘z tadqiqotida (“Latviyada soliqlar va nafaqalarning qayta taqsimlash samarasi: mikrosimulyatsiya yondashuvi” / “The Redistributive Effect of Taxes and Benefits in Latvia: A Microsimulation Approach”) soliq va nafaqalar tizimi Latviyadagi daromadlar tengsizligiga qanday ta’sir qilishini tahlil qiladi (A. Zasova, 2017).

Xarajatlar va foyda tahlili (CBA) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlarining fiskal va ijtimoiy xarajatlarini ularning foydasi bilan solishtirish usulidir. CBA rag‘batlantirishlarning samarali ekanligini va davlat resurslaridan foydalanish

oqlanishini tushunish uchun ham miqdoriy, ham sifatiy ta’sir baholashlarini o‘z ichiga oladi. Fiskal xarajatlar asosiy elementlar sifatida foydalaniladi:

- Soliq imtiyozlari natijasida davlat budjeti tushumlarining qisqarishi (F. Figari, A. Paulus & H. Sutherland, 2015). Masalan, qaramog‘ida shaxslar bo‘lganlar uchun imtiyozlar berilishi sababli soliq tushumlarining yo‘qotilishi.
- Imtiyozlarni qo‘llash va ularning ijrosini monitoring qilish xarajatlari. Bular ma’muriy xarajatlar hisoblanadi.
- Muqobil siyosat choralarining boy berilgan foydalari (masalan, ta’lim yoki sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan investitsiyalar).

Foydalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: daromadlar tengsizligini kamaytirish (masalan, GINI koeffitsiyentining pasayishi). Uy xo‘jaliklarining farovonligini oshirish, ayniqsa kam ta’minlangan guruhlar uchun. Ishchi kuchining ishtirokini rag‘batlantirish va iste’molning o‘sishi iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantiradi hamda uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o‘sish ta’minlansa, soliq tushumlarini oshiradi.

Soliq imtiyozlarini baholash uchun statistik ko‘rsatkichlar. GINI koeffitsiyenti, Lorents egri chizig‘i va fiskal yuk kabi statistik ko‘rsatkichlardan foydalangan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlarining daromadlar taqsimotiga, tengsizlikka va soliq tizimining adolatliligiga ta’sirini tahlil qilish mumkin. Fiskal yuk soliqlar va yig‘imlarning shaxs yoki uy xo‘jaligining umumiy daromadiga nisbatini o‘lchaydi.

Latviyada daromadlar tengsizligi. Latviyada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JShDS) va ijtimoiy sug‘urta badallari kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlar daromadlarni qayta taqsimlashga ta’sir ko‘rsatadi. 2018 yilda yuqori daromadlar yuqoriroq stavkada soliqqa tortiladigan progressiv JShDS tizimi joriy etilgan edi. Bu qadam daromadlar tengsizligini kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan.

Afsuski, progressiv jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini joriy etish bo‘yicha kiritilgan o‘zgarishlar kutilgan natijalarni bermadi va bir nechta statistik ko‘rsatkichlar ko‘rsatib turganidek, Latviyada daromadlar tengsizligi yuqoriligicha qolmoqda. 2023 yilda eng badavlat qatlamning daromadi eng kam ta’minlanganlarnikidan 6,3 barobar ko‘p bo‘ldi (2022 yildagi 6,2 barobarli tafovutga

nisbatan). GINI koeffitsiyenti 2022 yilda qayd etilgan 34,0 foizga nisbatan biroz ortib, 2023 yilda 34,2 foizni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Latviya Respublikasida daromadlar tengsizligi ko‘rsatkichlari (2016–2023 yillar)

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
GINI koeffitsiyenti (Gini coefficient, %)	34.5	35.6	35.2	34.5	35.7	34.3	34.0	34.2
Kvintel tafovut koeffitsiyenti (S80/S20 ratio, barobar)	6,3	6,8	6,5	6,3	6,6	6,3	6,2	6,3

Boltiq bo‘yi davlatlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlarining umumiy va o‘ziga xos jihatlari

Boltiq bo‘yi davlatlari — Latviya, Litva va Estoniyaning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tizimlari tengsizlikni kamaytirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish hamda jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni qo‘llab-quvvatlashga қаратилган турли хил imtiyozlarni o‘z ichiga oladi. Uchala davlatning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- Birinchidan, soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor. Barcha uchala davlat eng kam daromad oluvchi guruhlar uchun yuqoriroq bo‘lgan hamda yuqori daromadlarda kamayadigan yoki bekor qilinadigan soliqqa tortilmaydigan minimum miqdorni qo‘llaydi.
- Ikkinchidan, qaramog‘dagi shaxslar uchun imtiyozlar. Barcha mamlakatlar bolalar yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar kabi qaramog‘idagilar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etadi.
- Uchinchidan, ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlari uchun chegirmalar. Boltiq bo‘yi davlatlarida fuqarolar ta’lim va tibbiy xarajatlar bo‘yicha soliq imtiyozlarini talab qilish huquqiga egaalar.
- To‘rtinchidan, pensiya jamg‘armalari uchun imtiyozlar. Barcha mamlakatlar soliq imtiyozlarini berish orqali uzoq muddatli pensiya jamg‘arishni rag‘batlantiradi.
- Beshinchidan, xayriya faoliyatini rag‘batlantirish. Jamiyat manfaatlarini ko‘zlovchi tashkilotlarga qilingan xayriyalar uchun soliq imtiyozlari mavjud.

Barcha mamlakatlar daromadlar tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish vositasi sifatida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va imtiyozlar tizimidan foydalanadi.

Boltiq bo‘yi mamlakatlarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari ijtimoiy himoyani kuchaytirish va daromadlar tengsizligini kamaytirish, xususan, oilalar hamda kam ta’minlangan guruhlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida faol qo‘llaniladi.

2-jadval

2025 yilda Boltiq bo‘yi davlatlarining jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i imtiyozlari tizimidagi farqlar

Mezonlar	Latviya	Litva	Estoniya
Eng kam oylik ish haqi	(2024) 700 evro (2025) 740 evro	(2024) 924 evro (2025) 1038 evro	(2024) 820 evro (2025) 886 evro
Soliq stavkasi tuzilmasi	Progressiv soliq stavkasi: • 2024 yilda: 20%, 23%, 31% • 2025 yilda: 105 300 evrogacha bo‘lgan yillik daromadga — 25.5%, 105 300 evrodan oshgan yillik daromadga — 33%	Progressiv soliq stavkasi: • O‘rtacha ish haqining 60 barobaridan oshmaydigan yillik daromadga 20% stavka (2024 yilda — 114 162 evro) • O‘rtacha ish haqining 60 barobaridan oshuvchi yillik daromadga 32% stavka	Barcha daromadlarga nisbatan 20% lik qat’iy (proporsional) stavka qo‘llaniladi, bu esa uni Boltiq bo‘yi mintaqasidagi eng oddiy tizimga aylantiradi.
Soliqqa tortilmaydigan minimumning miqdori va qo‘llanilishi	Eng past daromadlar uchun oyiga maksimal soliqqa tortilmaydigan minimum 510 evroni tashkil etadi, pensionerlar uchun esa 1000 evro	Soliqqa tortilmaydigan minimum oyiga 625 evrogacha bo‘lib, yuqori daromadlarda kamayib boradi.	Yiliga 6 540 evrogacha bo‘lgan yagona soliqqa tortilmaydigan minimum, yuqori daromadli shaxslar uchun esa bosqichma-bosqich kamaytiriladi.
Oilani qo‘llab-quvvatlash	Ko‘p bolali oilalarni keyingi har bir farzand uchun yuqoriroq nafaqalar bilan yaqqolroq qo‘llab-quvvatlash.	Ko‘p bolali oilalarni keyingi har bir farzand uchun yuqoriroq nafaqalar bilan yaqqolroq qo‘llab-quvvatlash.	Soliq tizimi soddaroq bo‘lib, oilani qo‘llab-quvvatlash soliq imtiyozlaridan ko‘ra ko‘proq nafaqalar orqali amalga oshiriladi.

Mezonlar	Latviya	Litva	Estoniya
Qarz bo‘yicha imtiyozlar	Bunday turdagi soliq imtiyozlari mavjud emas yoki juda cheklangan.	Bunday turdagi soliq imtiyozlari mavjud emas yoki juda cheklangan.	Ipoteka foizlari bo‘yicha chegirmalar.
Pensiya jamg‘armalari	3-pensiya ustuni va hayotni sug‘urta qilish uchun kengroq soliq imtiyozlari.	3-pensiya ustuni va hayotni sug‘urta qilish uchun kengroq soliq imtiyozlari.	Pensiya tizimini qo‘llab-quvvatlash majburiy 2-pensiya ustuni orqali ko‘proq amalga oshirilgani sababli, bu sohadagi imtiyozlar cheklanganroq.
Ma’muriyatchilikning soddaligi	Turli xil progressiv stavkalar va chegaralarga ega bo‘lgan nisbatan murakkabroq tizimlar.	Turli xil progressiv stavkalar va raqamli yechimlarga ega bo‘lgan nisbatan murakkabroq tizimlar.	Qat’iy stavka va raqamli yechimlar tufayli soliq ma’muriyatchiligi eng sodda hisoblanadi.
Dividendlar	20% (2024) 25.5% (2025)	0% yoki 16%, Ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish to‘g‘risidagi bitimga (DTT) muvofiq kamaytirilgan stavkalar qo‘llanilishi mumkin.	Soliqqa tortiladigan sof to‘lovdan 22/78 qismi sifatida hisoblanadigan 22%.

*Manba: (*Sproge, I., Lace, N., & Joppe, A., 2025*)*

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha shaxsiy chegirmalar

- **Latviya:** Ta’lim va tibbiy xizmatlar xarajatlari (stomatologiya xizmatlari va rejali operatsiyalarni o‘z ichiga olgan holda), jamiyat manfaatlarini ko‘zlovchi tashkilotlarga hamda har bir oila a’zosi uchun yiliga 600 evrodan oshmagan miqdordagi siyosiy partiyalarga qilingan xayriyalar (shaxsning yillik soliqqa tortiladigan daromadining 50%igacha bo‘lgan qismi chegiriladi).
- **Litva:** Jismoniy shaxs o‘zining yoki turmush o‘rtog‘ining manfaatlarini ko‘zlab binolarni pardozlash va uning har qanday ta’mirlash turlari (ko‘p qavatli uylarni rekonstruksiya qilish bundan mustasno), avtomobil ta’mirlash va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun parvarishlash xizmatlari bo‘yicha qilgan xarajatlarini (agar xizmat ko‘rsatuvchi Litva soliq to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan/o‘tishi kerak bo‘lsa) chegirib tashlashi mumkin. Bunday xarajatlarning umumiy yillik miqdori 2 000 evrodan oshmasligi lozim.

• **Estoniya:** O‘qitish xarajatlari, sovg‘alar va xayriyalar 1 200 evrogacha bo‘lgan miqdorda daromaddan chegirib tashlanishi mumkin. Chegirmalar Estoniyada bir xil soliq davri uchun soliq to‘lovchining soliqqa tortiladigan daromadining 50%idan oshishi mumkin emas (Sproge, I., Lace, N., & Joppe, A., 2025).

3-jadval

Boltiq bo‘yi davlatlarida ish haqi tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	Latviya	Litva	Estoniya
Yalpi (brutto) ish haqi	1 000.00 €	1 000.00 €	1 000.00 €
Ijtimoiy sug‘urta (xodimlar ulushi)	105.00 €	195.00 €	16.00 €
Soliqqa tortilmaydigan daromad	510.00 €	625.00 €	654.00 €
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (%)	25.50%	20%	20%
Soliq summasi (Evro)	98.18 €	50.60 €	69.20 €
Sof (netto) ish haqi	796.82 €	754.40 €	914.80 €
Ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan soliqlar	236.26 €	17.70 €	338.00 €
Ish o‘rnining umumiy qiymati	1 236.26 €	1 017.70 €	1 338.00 €
Sof ish haqi / umumiy qiymat nisbati (%)	64%	74%	68%

Manba: (Sproge, I., Lace, N., & Joppe, A., 2025).

Sof ish haqi va umumiy qiymat o‘rtasidagi eng katta farq Latviyada kuzatilib, 64% ni tashkil etadi, eng kichik farq esa Litvada qayd etilib, 74% ga teng.

Xulosa va tavsiyalar

1. Mualliflarning fikricha, Latviya va Litva tengsizlikni yanada samaraliroq kamaytirish uchun progressiv stavkalardan foydalanadi, Estoniya esa biznes uchun qulayroq bo‘lgan oddiy qat’iy stavkali (proporsional) modelga tayanadi.

2. Latviyada progressiv tizim daromadlar tengsizligini kamaytirishga yordam beradi, biroq hududiy tafovutlar va norasmiy iqtisodiyotning yuqori ulushi asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Boshqa tomondan, Litvada progressivlik va soddalik o‘rtasidagi muvozanat tengsizlikni kamaytirishga ko‘maklashadi, ammo yuqoriroq soliq stavkasi yuqori daromad oluvchilar uchun rag‘batlantiruvchi omilni kamaytirishi mumkin. Estoniyada esa qat’iy soliq stavkasi va soliqqa tortilmaydigan minimum investitsiyalar hamda biznes taraqqiyotini rag‘batlantirgan, ammo ushbu sodda tizim daromadlar tengsizligini bartaraf etishda kamroq samara bermoqda.

3. Estoniya tizimi investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun eng mos keladi, Latviya va Litva tizimlari esa ijtimoiy tenglikni ta’minlashda samaraliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anon., 2025. *ax Rates in the Baltic Countries.* [Online] Available at: https://leinonen.eu/articles/tax-rates-in-the-baltic-countries/

2. A. J. Auerbach & M. Feldstein (Eds.), Handbook of Public Economics, Vol. 3. Elsevier, 2002.

3. A. Zasova, The Redistributive Effect of Taxes and Benefits in Latvia: A Microsimulation Approach. Baltic Journal of Economics, 17(1), 1-20, 2017.

4. An official website of the European Union. EU and euro area tax-to-GDP ratio down in 2023/ NEWS ARTICLES 31 October 2024 / https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20241031-1?

5. Бобоев М., Мамбеталиев Н, 2005. Налоговые системы зарубежных стран. Moskva: б.н.

6. Figari, A. Paulus & H. Sutherland, The Design of Fiscal Consolidation Measures in the European Union: Distributional Effects and Implications for Macroeconomic Recovery, Oxford Economic Papers, 2015.

7. Finance, R. o. E. M. o., 2025. Taxes. [Online] Available at: https://www.fin.ee/en/taxes

8. J. Kleven & M. Waseem, Using Notches to Uncover Optimization Frictions and Structural Elasticities: Theory and Evidence from Pakistan, Quarterly Journal of Economics, 128(2), 669-723, 2013.

9. H. Immervoll & C. O’Donoghue, Microsimulation of Taxes and Benefits, 2001.

10. G.Mazure, D.Viksne, 2014. INCOME TAXATION DEVELOPMENT TRENDS IN THE BALTIC STATES. Economic Science for Rural Development, Issue 33, pp. 34-44.

11. Greenberg, D., 2009. THE FLAT TAX: AN EXAMINATION OF THE BALTIC STATES, Pennsylvania: University of Pennsylvania.

12. Ilze SPROGE, Natalja LACE, Aina JOPPE, 2025. Tax Benefits of the Income Tax Systems of the Baltic States: Comparison and Assessment. Virtual Conference, International Institute of Informatics and Systemics, pp. 216-220.

13. J. E. Stiglitz, Economics of the Public Sector. W.W. Norton & Company. 2000.

14. J. A. Mirrlees, An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation, 1971.

15. J. E. Stiglitz & J. K. Rosengard, Economics of the Public Sector, W.W. Norton & Company, 2015.

16. J. E. Stiglitz, Economics of the Public Sector, 2015.

17. J. Slemrod & J. Bakija, Taxing Ourselves: A Citizen's Guide to the Debate Over Taxes, MIT Press, 2017.

18. Kristjan Jarve, Matrins Lubgans, Vygintas Valiulis, 2024. Pan-Baltic tax system comparison, https://www.grantthornton.ee/en/services/tax/pan-baltic-tax-system Grant Thornton Baltic OÜ.

19. Lithuania, M. o. F. o. t. R. o., 2023. Tax Administration. [Online] Available at: https://finmin.lrv.lt/en/competence-areas/taxation/tax-administration/

20. Feldstein, Tax Avoidance and the Deadweight Loss of the Income Tax. Review of Economics and Statistics, 81(4), 674-680, 1999.

21. O, A., 2003. Ҳорижий мамлакатлар Солиқ тизими. Toshkent: ТДИУ.

22. Одил, А., М. Налоговые системы зарубежных стран. 2005: б.н.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11.09.2023 yildagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF158-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6600413

24. O‘zbekiston — Latviya ishbilarmonlar kengashining ikkinchi yig‘ilishi. Murojaat sanasi: 08.02.2022. Internet manbaa, URL: https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--latviya-ishbilarmonlar-kengashining-ikkinchi-yigilishi-togrisida

25. Peter Feith, Maie Majak-Knöbl, 2012. Taxation in the Baltic States, Tallinn: IMG.

26. P. Diamond, E. Saez, The Case for a Progressive Tax: From Basic Research to Policy Recommendations, Journal of Economic Perspectives, 25(4), 165-190, 2011.

27. M. Feldstein, The Effect of Marginal Tax Rates on Taxable Income: A Panel Study of the 1986 Tax Reform Act. Journal of Political Economy, 103(3), 551-572, 1995.

28. R. A. Musgrave, P. B. Musgrave, Public Finance in Theory and Practice, McGraw-Hill, 1989.

29. SPROGE, I., LACE, N., & JOPPE, A. (2025). Tax Benefits of the Income Tax Systems of the Baltic States: Comparison and Assessment. Proceedings of the 16th International Multi-Conference on Complexity, Informatics and Cybernetics (IMCIC 2025). 216-220.

30. Stepanyan, V., 2003. Reforming Tax Systems: Experience of the Baltics, Russia, and Other Countries of the Former Soviet Union. International Monetary Fund, 03(173), pp. 1-30.

31. Шамсутдинов Ф., Шамсутдинова Ш., 2002. Налоговая система России. Toshkent: TFI.